

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY Tajribalar.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH Tajribasi.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR Tajribalari.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срождидинова Зарина Хайриiddиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
IJTIMOYIY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN O'RTA QATLAM" MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Jo'raqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna	
O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI	208
Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	214
Usmanov Gafurjon Shavkatovich	
QURILISHDA ISHLAB CHIQRISH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINING RIVOJLANISHI	220
Buriyev Xakim Toshimovich, Usmanov Ilxom Achilovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIYALARI	225
Xolov Sherali Axrorboyevich	
2010-2024-YILLARDA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIKNI INVESTITSIYALASHNING EKONOMETRIK TAHLILI	229
Ashurov Shuhratbek Quddat o'g'li	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI	233
Sherbekova Kamola Norbekovna	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGI DARAJASI VA UNI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	243
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich	
MARKAZIY BANK KURS SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	249
Saydullayev Nodirbek Narzullaevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SALOHİYATI VA MUAMMOLARI	258
Raupov Shuxrat Soyibovich	
ЭКОТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	264
Абидова Дилфуза Игамбердиевна, Рахматуллаева Зулайхо Хасан кизи	
DIGITAL ECONOMY AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: BUSINESS CHANGE IN THE REGIONS	270
Abdullayev Muzaffar Abdujabbarovich	



QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHDA IOT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	273
Mirzaev Dilshod Artikovich	
ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА	279
Касимова Наргиза Сабитджановна	
YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	284
Ismoyilova Mahliyo Oybek qizi	
BOSHQARUVDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR (OLIV TA'LIM MISOLIDA).....	289
Karieyva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISHNING AMALDAGI HOLATI VA ASOSIY TENDENSIYALARI.....	295
Qurbonov Odilbek Ro'zmatovich	
O'ZBEKISTONDA SPORT FEDERATSIYALARI VA ASSOTSIATSIYALARINI SAMARALI BOSHQARISH TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'LLARI	302
Umed Farmonkulovich Radjabov	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY MEKANIZMNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	307
Mullayeva Mexrangiz Axtam qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	313
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Muradova Nazira Raximjanovna	



KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)

Xolmirzayev Ulug‘bek Abdulazizovich

Namangan davlat texnika universiteti
Buxgalteriya hisobi kafedrası dotsenti, DSc.
E-mail: xulugbek1984@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3589-373X

Muradova Nazira Raximjanovna

Namangan davlat texnika universiteti
Buxgalteriya hisobi kafedrası katta o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0009-3383-8102

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan iqtisodiy muammolar hamda ularni bartaraf etishning samarali yo‘llari Namangan viloyati misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi o‘rni, hududiy rivojlanishdagi ahamiyati hamda ularning faoliyatini cheklab kelayotgan asosiy omillar — moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi, infratuzilma muammolari, kreditlash tizimidagi to‘siqlar va bozor muhitidagi raqobat masalalari ilmiy jihatdan o‘rganilgan.

Maqolada hududiy iqtisodiy rivojlanish jarayonida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda moliyaviy xizmatlar va kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Shuningdek, Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarining barqaror faoliyat yuritishini ta‘minlash hamda ularning hududiy iqtisodiy o‘sishga qo‘shayotgan hissasini oshirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlar asoslab berilgan.

Natijada kichik biznesni rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda aholi daromadlarini oshirish imkoniyatlari ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, hududiy iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy muammolar, moliyaviy resurslar, investitsiya muhiti, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, Namangan viloyati, bandlikni oshirish, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract. This article analyzes the economic challenges arising in the development of small business and private entrepreneurship and explores effective ways to address them, using Namangan region as a case study. The study examines the role of small business entities in the economy, their importance in regional development, and the main factors limiting their activities, including limited access to financial resources, infrastructure problems, barriers in the credit system, and issues related to market competition.

The article develops scientific and practical recommendations aimed at improving mechanisms for supporting small businesses in regional economic development, enhancing the investment climate, and expanding access to financial services and credit resources. In addition, priority directions are substantiated to ensure the sustainable functioning of small business entities in Namangan region and to increase their contribution to regional economic growth.

As a result, the study highlights the potential for strengthening regional economic stability, creating new jobs, and increasing household incomes through the development of small businesses.

Key words: small business, private entrepreneurship, regional economic development, economic challenges, financial resources, investment climate, entrepreneurship support, Namangan region, employment growth, economic stability.



Аннотация. В данной статье анализируются экономические проблемы, возникающие в процессе развития малого бизнеса и частного предпринимательства, а также эффективные пути их решения на примере Наманганской области. В исследовании научно рассмотрены роль субъектов малого бизнеса в экономике, их значение в региональном развитии, а также основные факторы, ограничивающие их деятельность — ограниченный доступ к финансовым ресурсам, проблемы инфраструктуры, барьеры в системе кредитования и вопросы конкуренции на рынке.

В статье разработаны научно-практические предложения по совершенствованию механизмов поддержки малого бизнеса в процессе регионального экономического развития, улучшению инвестиционного климата, а также расширению возможностей использования финансовых услуг и кредитных ресурсов. Кроме того, обоснованы приоритетные направления обеспечения устойчивой деятельности субъектов малого бизнеса в Наманганской области и повышения их вклада в региональный экономический рост.

В результате научно раскрыты возможности укрепления региональной экономической стабильности, создания новых рабочих мест и увеличения доходов населения посредством развития малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, региональное экономическое развитие, экономические проблемы, финансовые ресурсы, инвестиционный климат, поддержка предпринимательства, Наманганская область, занятость, экономическая стабильность.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlari iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlash hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ko'plab davlatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va uning faoliyatini rag'batlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham bozor iqtisodiyoti munosabatlarini chuqurlashtirish jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish, biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash, soliq yukini kamaytirish hamda tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortib borayotgan bo'lsa-da, ushbu sohada ayrim iqtisodiy muammolar hamon mavjud bo'lib qolmoqda. Xususan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining yetarli emasligi, kreditlash tizimidagi ayrim cheklovlar, ishlab chiqarish infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda bozor raqobati bilan bog'liq masalalar kichik biznes faoliyatining barqaror rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

Hududiy kesimda ushbu masalalarni o'rganish alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Namangan viloyati iqtisodiyotida kichik biznes subyektlari muhim o'rin egallab, sanoat, savdo, xizmat ko'rsatish hamda qishloq xo'jaligi tarmoqlarida faol ishtirok etmoqda. Shu bilan birga, hududda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish jarayonida ayrim iqtisodiy va institutsional omillar mavjudligi kuzatiladi. Mazkur holat kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan samarali iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish hamda hududiy rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolaning asosiy maqsadi kichik biznesni rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan iqtisodiy muammolarni Namangan viloyati misolida tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishning samarali yo'llarini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat. Tadqiqot natijalari hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish hamda kichik biznesning iqtisodiy o'sishdagi rolini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari iqtisodiy fanlarda keng tadqiq etilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan kichik biznes iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish, innovatsiyalarni joriy etish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim rol o'ynaydigan institut sifatida qaraladi.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan J. Schumpeter tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy rivojlanishning muhim harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin etib, kichik biznes innovatsiyalarni joriy etish va yangi bozor imkoniyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan [1]. Shuningdek, D. Birch o'z tadqiqotlarida kichik va o'rta biznes subyektlari iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarini yaratishning asosiy manbalaridan biri ekanligini



ilmiy asoslab bergan [2]. Bu yondashuv kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Kichik biznesni rivojlantirish muammolari bo'yicha xalqaro tashkilotlar tomonidan ham qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Jahon banki va OECD ekspertlari tadqiqotlarida kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirish, tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish hamda davlat tomonidan institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish muhim omil sifatida e'tirof etilgan [3]. Ushbu tadqiqotlarda kichik biznesning barqaror rivojlanishi uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirish zarurligi ham alohida ta'kidlanadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham kichik biznesni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini keng o'rganilgan. Xususan, S. G'ulomov o'z ilmiy ishlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlovchi muhim omil ekanligini ta'kidlab, ushbu sohani rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini asoslab bergan [4]. Shuningdek, A. Vahobov va boshqa tadqiqotchilar ishlarida kichik biznesni rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirish, aholi bandligini ta'minlash hamda iqtisodiyotda raqobat muhitini kuchaytirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan [5].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar kichik biznesni rivojlantirishning nazariy asoslarini yoritib bergan bo'lsa-da, hududiy darajada, xususan Namangan viloyati misolida, kichik biznes faoliyatida uchrayotgan iqtisodiy muammolarni tizimli tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari qo'shimcha ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Shu jihatdan ushbu maqolada kichik biznesni rivojlantirishning iqtisodiy muammolari hududiy kesimda tahlil qilinib, ularni bartaraf etishning samarali yo'llari ilmiy asosda yoritiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik biznesni rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan iqtisodiy muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini asoslash maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, tizimli yondashuv asosida kichik biznes faoliyatining hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni tahlil qilindi. Shuningdek, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish, iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida Namangan viloyatida kichik biznes subyektlari faoliyatiga oid rasmiy statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy manbalar tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida hududda kichik biznesni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatayotgan iqtisodiy omillar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sektor iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarini yaratish, raqobat muhitini rivojlantirish hamda hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida kichik biznes subyektlari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ayniqsa, hududiy iqtisodiyotda, jumladan, Namangan viloyatida kichik biznesning ulushi sezilarli darajada oshib bormoqda.

Namangan viloyati iqtisodiyoti tarkibida kichik biznes subyektlari sanoat, savdo, xizmat ko'rsatish hamda qishloq xo'jaligi sohalarida faoliyat yuritib, hududiy iqtisodiy rivojlanishga muhim hissa qo'shmoqda. So'nggi yillarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari, imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari hamda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan institutsional mexanizmlar ushbu sektorning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Quyidagi jadvalda Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi ulushi hamda rivojlanish dinamikasi keltirilgan.

1-jadval. Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi ulushi (2020–2024 yillar)

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Kichik biznes subyektlari soni (mingta)	35,4	37,8	40,6	43,2	45,7
YAIMdagi ulushi (%)	61,2	62,5	63,8	64,9	66,1
Bandlikdagi ulushi (%)	72,4	73,6	74,8	75,9	77,2
Sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (%)	38,5	40,1	41,7	43,4	45,2



Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda Namangan viloyatida kichik biznes subyektlari soni barqaror ravishda ortib bormoqda. 2020-yilda viloyatda 35,4 mingta kichik biznes subyekti faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 45,7 mingtaga yetgan. Shuningdek, kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi ham bosqichma-bosqich ortib borib, 2024-yilda 66 foizdan oshgan. Bu esa hududiy iqtisodiy rivojlanishda kichik biznesning ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ushbu ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda kichik biznes faoliyatida ayrim iqtisodiy muammolar ham kuzatiladi. Jumladan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi, kredit foiz stavkalarining nisbatan yuqoriligi, ishlab chiqarish infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda bozor raqobatining kuchayishi kichik biznes subyektlari faoliyatiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

Quyidagi jadvalda Namangan viloyatida kichik biznesni rivojlantirish jarayonida uchrayotgan asosiy iqtisodiy muammolar tizimlashtirilgan holda keltirilgan.

2-jadval. Namangan viloyatida kichik biznesni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillar

Muammo turi	Mazmuni	Iqtisodiy ta'siri
Moliyaviy resurslarga kirishning cheklanganligi	Kredit olish jarayonining murakkabligi va garov talablari yuqoriligi	Investitsiya faoliyatining pasayishi
Infratuzilma muammolari	Sanoat zonalari va logistika infratuzilmasining yetarli emasligi	Ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi
Bozor raqobati	Mahalliy va import mahsulotlari o'rtasidagi raqobatning kuchayishi	Kichik biznes daromadlarining kamayishi
Axborot va maslahat xizmatlari yetishmasligi	Tadbirkorlar uchun biznes konsalting xizmatlarining rivojlanmaganligi	Boshqaruv samaradorligining pasayishi

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlari faoliyatining barqaror rivojlanishi uchun institutsional va iqtisodiy muhitni yanada takomillashtirish zarur. Xususan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirish, tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish, biznes uchun axborot-maslahat xizmatlarini kengaytirish hamda hududiy investitsiya muhitini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, hududlarda sanoat zonalari rivojlantirish, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda kichik biznes subyektlari uchun soliq va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish orqali ularning iqtisodiy faoliyatini yanada faollashtirish mumkin. Natijada kichik biznes sektorining hududiy iqtisodiy rivojlanishga qo'shayotgan hisssasi ortib, yangi ish o'rinlari yaratilishi hamda aholi daromadlarining oshishi ta'minlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi muhim iqtisodiy omillardan biri hisoblanadi. Xususan, Namangan viloyati misolida olib borilgan tahlillar kichik biznes subyektlari iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini oshirish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, kichik biznesni rivojlantirish jarayonida moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi, kreditlash tizimidagi ayrim to'siqlar, infratuzilma bilan bog'liq masalalar hamda bozor raqobatining kuchayishi kabi omillar ushbu sektor faoliyatining samaradorligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida kichik biznesni rivojlantirish va mavjud iqtisodiy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirish. Buning uchun imtiyozli kreditlar hajmini oshirish, mikromoliyalashtirish institutlari faoliyatini kengaytirish hamda kredit olish jarayonlarini soddalashtirish maqsadga muvofiq.

2. Hududiy tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish. Xususan, Namangan viloyatida yangi sanoat zonalari, texnoparklar va logistika markazlarini tashkil etish kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

3. Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi institutsional mexanizmlarni takomillashtirish. Bunda davlat organlari, moliya institutlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Axborot va konsalting xizmatlarini rivojlantirish. Kichik biznes subyektlari uchun biznes rejalashtirish, marketing, moliyaviy boshqaruv hamda innovatsion faoliyat bo'yicha maslahat xizmatlarini kengaytirish ularning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.



5. Hududiy investitsiya muhitini yanada yaxshilash. Xususan, kichik biznes uchun soliq imtiyozlari va rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda eksport salohiyatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan samarali iqtisodiy va institutsional mexanizmlarni joriy etish Namangan viloyati iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kichik biznes sektorining iqtisodiyotdagi ulushi ortib borishi hududiy iqtisodiy raqobatbardoshlikni kuchaytirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Schumpeter, J.A. The Theory of Economic Development. Cambridge: Harvard University Press, 1934.
2. Birch, D. Job Creation in America: How Our Smallest Companies Put the Most People to Work. New York: Free Press, 1987.
3. OECD. Small and Medium Enterprises: Local Strength, Global Reach. Paris: OECD Publishing, 2000.
4. G'ulomov, S.S. Tadbirkorlik asoslari. Toshkent: O'zbekiston, 2012.
5. Vahobov, A.V., va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari. Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
6. Xolmirzayev, U.B. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti shakllanishi evolyutsiyasini tavsiflovchi nazariy yondashuvlar. Green Economy and Development, 1(10).
7. Xolmirzayev, U.A., & Hakimova, G.A. (2023). Xo'jalik yurituvchi subyektlarda debitor qarzar aylanishi tahliliga zamonaviy yondashuvlar.
8. Холмирзаев, У.А., & Камолдинов, О.О. (2022). Аспекты совершенствования представления информации о дебиторской задолженности по оборотным средствам в бухгалтерском балансе. Экономика и социум, № 5-2 (92), 767–779.
9. Холмирзаев, У.А. (2023). Дебитор қарзларини айланиши таҳлилин тақомиллаштириш масалалари.
10. Xolmirzayev, U.B. & Madaliev, M. (2023). Moliyaviy hisobotlarning qayta ko'rib chiqilishida xalqaro talablarga rioya etilishining zarurligi. Educational Research in Universal Sciences, 2(3), 424–432.
11. Холмирзаев, У.А., & Самижонова, Ш. С. (2022). Совершенствование отражения денег в бухгалтерском балансе. Экономика и социум, № 5-2 (92), 755–766.
12. Isomukhamedov, A., Kholmirzayev, U., Tursunov, U., Ergashev, I., Aliyeva, G., Karimova, S., & Nadirov, U. (2025). Using AI Enterprise Expenses Prediction and Budgeting Mechanisms. Reliability: Theory & Applications, 20(SI 10 (88)), 365–371.
13. Xolmirzayev, U.B., & Ubaydullayev, T.O. O'zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklik sohasida me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish. Green Economy and Development, 3(10).
14. Batirova, R. & Xolmirzayev, U.B. Ulgurji savdo qoidalari va chakana savdodan farqli tomonlari. Green Economy and Development, 3(9).
15. Холмирзаев, У., & Камолдинов, О. Экономика и социум. Экономика и социум, 625–627.
16. Sobirjon O'g'li, J.E., & Abdulazizovich, X.U. (2019). Profits of housekeeping and its development. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 8(4), 419–423.
17. Xolmirzayev, U.B. & Normatov, J. (2026). Mahalliy budjetlarni boshqarishda raqamli texnologiyalar va ochiqlikni kuchaytirish. Muhandislik va Iqtisodiyot, 4(2).
18. Madraimov, A., Ulug'Muradova, N., Ravshanov, A., Kholmirzayev, U., Egamberdiyeva, I. & Nortoeva, U. (2025). Predicting Tourist Spending Behavior Using Bayesian Networks. In 2025 International Conference on Computational Innovations and Engineering Sustainability (ICCIES) (pp. 1–5). IEEE.
19. Muradova, N. Kichik biznesni rivojlantirishga oid xorijiy mamlakatlarning ilg'or nazariyalari va yondashuvlari. Green Economy and Development, 3(11).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>